

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TARMOQLAR IQTISODIYOTI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 631.1:658 (575.1)

RO‘ZIEVA DILFUZA TOSHTEMIROVNA

QISHLOQ XO‘JALIGI TOVARLARINI ISHLAB CHIQRUVCHI VA
QAYTA ISHLOVCHI KORXONALARNING O‘ZARO HAMKORLIGI
NEGIZIDA AGROKLASTERLARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

70310102 -“Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

mutaxassisligi bo‘yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA


Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent D.I. Ro‘zieva

TOSHKENT – 2023


Magistrlik dissertatsiya ishi
“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

43 -sonli bayonnoma « 1 » 05 2023-y.

Ilmiy rahbar: dots. D.I.Ro‘zieva



Magistr: D.T.Ro‘zieva




Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil “ 19 ” 05

№ 2/13 raqami bilan ro‘yxatga olingan

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida mudiri

 dots. I.S.Xotamov

03 “ 05 ” may 2023-yil

Himoya 2023 yil “ 19 ” 05 soat 10⁰⁰ da
Toshkent davlat iqtisododiyot universiteti da bo‘lib o‘tdi.

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda bugungi kunda qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish klaster tizimi bilan bog'lanmoqda. Prezidentimizning ta'бири bilan aytganda, u tez orada agrar sohaning lokomotiviga aylanadi. Binobarin, qishloq xo'jaligi, ayniqsa, paxtachilik tarmog'i qanchalik sanoatlashsa, davlatning ekport salohiyati shunchalik ortadi, xalqning turmush farovonligi yuksaladi. Agroklasterni sohasida qishloq xo'jaligi tovarlarni ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarining o'zaro hamkorligi negizida agroklasterni rivojlantirish yo'llarini ochib berish maqsadida mavzuyimiz doirasida tadqiqot olib bordik. Mavzuyimiz doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari, mahalliy xorijiy adabiyotlarni o'rganib chiqdik. Ilmiy ishimizda nafaqat nazariy fikrlar balki mamlakatimizdagi "O'zbekiston Paxta to'qimachilik klasterlari" uyushmasi hamda "Toshkent Sotton Textile cluster" klasterlari faoliyati bilan tanishib sohani rivojlantirishdagi amaliy ishlar tahlil jarayonida o'rganildi. O'rgangan ma'lumotlarimiz va tahlil natijalaridan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarining o'zaro hamkorligi negizida agroklasterni rivojlantirish yo'larini o'rni va ulardan yanada samaraliroq foydalanish yuzasidan xulosa takliflar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar qishloq xo'jaligi transformatsiyasi, modernizatsiyalash, agroklasterni, institutsional muhit, raqobatbardoshlik, agrosanoat majmuidagi tadbirkorlik agroklasterni, fermer va dehqon xo'jaliklari, qayta ishlovchi korxonalar, integratsiya, innovatsiya, infratuzilma, eksport.

ANNOTATION

In our country today, the rapid development of agriculture and the increase of its economic efficiency are connected with the cluster system. In the words of our President, it will soon become a locomotive of the agricultural sector. Consequently, the more industrialized the agriculture, especially the cotton sector, the more the country's export potential will increase, and the people's well-being will improve. In the field of agroclusters, we conducted research within the framework of our topic in order to reveal ways of developing agroclusters on the basis of mutual cooperation of enterprises that produce and process agricultural goods. We have studied the research works conducted within the framework of our topic, local and foreign literature. In our scientific work, not only theoretical ideas, but also the activities of the "Uzbekistan Cotton Textile Clusters" association and the "Tashkent Cotton Textile Cluster" clusters in our country were studied in the process of analysis. Based on the information we have learned and the results of the analysis, we have developed conclusions on the role of agrocluster development and their more effective use based on the cooperation of enterprises that produce and process agricultural goods.

Key words: agricultural transformation, modernization, agrocluster, institutional environment, competitiveness, entrepreneurial agrocluster in the agro-industrial complex, farmers and peasant farms, processing enterprises, integration, innovation, infrastructure, export.

Mundarija

ANNOTATSIYA	3
KELTIRILGAN JADVALLAR RO'YXATI	6
KELTIRILGAN RASMLAR RO'YXATI.....	7
KIRISH	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
Tadqiqot maqsadi va vazifalari	11
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	12
Tadqiqot ilmiy yangiligi quydagilardan iborat	13
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	13
I-BOB.ADABIYO TLAR SHARHI.....	15
1.1. Kirish.....	15
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar	15
1.3. Mahalliy me'yoriy huquqiy hujjatlar sharhi.....	18
II-bob. TADQIQOT METODOLIGIYASI	21
2.1. Tadqiqot dizayni.....	21
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	21
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	22
2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.	22
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	23
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	23
III-bob. TAHLIL VA NATIJALAR.....	24
3.1. Agroklasterning iqtisodiy mohiyati va unga ilmiy nazariy qarashlar.....	24
3.2. Agroklasterning rivojlanishida xorijiy davlatlar tajribasi	28
3.3. Qishloq xo'jaligi tovarlarni ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarining o'zaro hamkorligi negizida agroklasterning faoliyatini baholash va uni rivojlantirish istiqbollari	42
V-606. XYJOCA	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	70

KIRISH

Bugungi iqtisodiy islohotlar jadal olib borilayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizning iqtisodiy o'sish darajasi agrarsohasini rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Bu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, agroklastar tizimida yer egasi, tayyor mahsulotlar, o'g'itlar ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda ularga turli xizmatlar ko'rsatuvchi tuzilmalar iqtisodiy hududiy logistika va boshqa rishtalar bilan chambarchas bog'lanadi, bir-birini astoydil qo'llab-quvvatlashdan manfaatdor bo'ladi, birining yutug'i ikkinchisi, uchinchisining ham ishi yurishishini anglatadi. Mamlakatimizda bu sohadan oqilona foydalanish va bu sohani rivojlantirish agroklastarlikni yangi bosqichga olib chiqish, bu borada fermerlar va tadbirkorlarni dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalarga molyaviy imtiyozlar va bir qator qulay shart-sharoitlar yaratilib berilishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlarini oshirmoqda. Bozor munosabatlari sharoitida agroklastarlik faoliyatini samarali tashkil etilishi orqali klasterning tarkibidagi xo'jaliklar, korxonalar, muassasalar xomashyoni yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulot vujudga kelishi va uni sotishgacha bo'lgan jarayonda bitta yaxlit jamoaga birlashadi. Natijada tannarx pasayadi va ko'proq foyda olish imkoni yuzaga keladi. Barcha iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, klasterlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida allaqachon yetakchi tizimga aylangan. Masalan, AQShda xususiy sektordagi odamlarning 32 foizi, Shvesiyada mehnatga layoqatli fuqarolarning 39 foizi klasterlarda ishlaydi. Hindiston klasterlarida mamlakat eksportining 60 foizidan ko'prog'i ishlab chiqariladi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini klasterlashdan maqsad — agrar sohani xomashyoga yo'naltirilganligini tugatish, uni sanoatlashtirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va foydani keskin ko'paytirishdan iborat.

Yangi tizim bo'lgani uchun "Klasterlashtirishni amalga oshirmasligimiz ham mumkin ediku" degan savollar paydo bo'ldi: Javob quydagicha; bugungi globalashuv davrida agrar sohani klasterlashtirmasdan turib, jahon bozoriga